



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 10-sinflar uchun
ona tili fanidan III chorak

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 10-sinf ona tili fanidan III chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Nobel mukofoti	1		
2.	Nobel mukofoti laureatlari nutqi . Minbarda nutq so‘zlash.	1		
3.	“Silikon vodiysi...” matni ustida ishlash	1		
4.	Kelajak kasblari. Zamon qo‘shimchalarining qo‘llanishi	1		
5.	Tabiat va ixtirolar. Nisbat qo‘shimchalari qo‘llanishi	1		
6.	Innovatsion rivojlanish vazirligi. Qo‘shib, ajratib, chiziqcha bilan yozish	1		
7.	Boylik tushunchasi. Matndagi asosiy va yordamchi ma’lumotlarni aniqlash. Ma’no ko‘chishi.	1		
8.	Qashshoqlik. Matnning maqsadini aniqlash. Vulgarizm va varvarizmlar	1		
9.	Boylar: kecha va bugun. Mustaqil nutq	1		
10.	Milliarderlar hayotidan. Subyektiv munosabat shakllari. Yozma matnning kirish qismini shakllantirish	1		
11.	5-nazorat ishi	1		
12.	Yozma matnning asosiy qismini shakllantirish. Nuqta (.), so‘roq (?), undov (!)	1		
13.	Kino san’ati. Ma’lumot. Tinish belgilariga oid topshiriqlar. Og‘zaki nutqning xulosa qismini shakllantirish.	1		
14.	25-kadr. Matn muallif nuqtayi nazariga baho berish.	1		
15.	Seriallar va biz. Qo‘shirnoq. Yozma matnning xulosa qismini shakllantirish.	1		
16.	Bahslashish odobi. Nuqtali vergul (;)	1		
17.	Film va badiiy asar. Ikki nuqta (:)	1		
18.	6-nazorat ishi	1		
19.	Xatolar ustida ishlash	1		
20.	Mustahkamlsh	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Nobel mukofoti

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish va bilimlarini oshirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish mustaqil fikrlash doirasini yuksaltirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish; tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:

ona tili fanining rivojlanish tarixi, uning taraqqiyot qonuniyatlaridan xabardor bo‘lish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Adabiyot yo‘nalishi bo‘yicha Nobel mukofotiga ilk bor 1901-yilda fransuz shoiri Arman Syulli-Pryudom sazovor bo‘lgan edi. Mana shu tarixiy, olamshumul voqea bo‘lmaganida, ehtimol, Pryudomni jahon tanimasmidi...Ha, hattoo‘z vatanida nomi unut bo‘layozgan shoirni Shvetsiya akademiyasi mukofotga eng munosib nomzod deb topdi. Biroqbutun dunyo adiblari ushbu mukofot jahonda asarlari eng ko‘p o‘qilayotgan ulug‘ rus adibi Lev Nikolayevich Tolstoyga berilishini kutayotgandi. To‘g‘ri, Pryudomning iste‘dodiga shubha yo‘q, u o‘ziga xos serqirra shoir bo‘lgan. Ammo uning ijodini Tolstoydek ulkan “tog‘” bilan bo‘ylashtirib bo‘lmasdi, albatta. Tolstoydan kechib, Pryudomning rag‘batlantirilishi esa adabiyot olamida chin ma‘noda hayratlanarli hodisa bo‘ldi. Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, Tolstoyning o‘zi bu mukofotni rad etgan, ikkinchidan, agar mukofot Tolstoyga berilganda kelgusi nomzodlarga ham o‘ta

yuqori talablar belgilangan bo‘lardi va Nobel cho‘qqisi egallab bo‘lmas marraga aylanib qolishi ehtimoldan xoli emasdi. Bu bilan Syulli-Pryudomga mukofot nohaq berilgan, demoqchi emasmiz, albatta. Uning “asarlarining o‘ziga xos badiiy obro‘si, xususan, yuksak g‘oyaviyligi, mukammalligi, shuningdek, iste’dod bilan samimiyligni ajoyib tarzda uyg‘unlashtirgani uchun” mukofotga loyiq deb topilishi ushbu shoir ijodiga berilgan xolis bahodir... Shvetsiya akademiyasi a‘zolari ijodkorga shunday ta’rif beradilar: “Sinchkovlik, kuzatuvchanlik hamda ma’naviy ulug‘vorlik bilan yo‘g‘rilgan zakovat Syulli-Pryudomni boshqalardan ajratib turadi”. Amerikalik tadqiqotchilardan biri shoir haqida shunday yozadi: “U poeziyani zulmat qa’ridan olib chiqdi, shuningdek, baxtga eltuvchi yo‘l azob-uqubatlar, fidoyilik vaqardoshlik muhabbati orqalio‘tadi, deb uqtirdi”. Uzoq vaqt falajlikdan azob chekkan shoir 1907-yil 6-sentyabrda Shatney-Malabri shaharchasida vafot etadi. Uning qanday inson bo‘lganini asarlarida tarannum etilgan xayrli ishlarni nechog‘lik amalga oshirganidan hambilsa bo‘ladi. Pryudom Nobel mukofoti uchun olgan pulini yosh shoirlarni rag‘batlantirishga sarflaydi. Taassuf ilatan olish kerakki, o‘z davrida adabiyot sohasida ham, olimlar doirasida ham, jamoatchilik ichida ham hurmatga sazovor bo‘lgan ulug‘ Syulli-Pryudomni bugungi kunda hatto vatani Fransiyada ham kam eshlari achinarli hol, albatta.

1-test. Adabiyot bo‘yicha ilk Nobel mukofotining Syulli-Pryudomga berilgani ko‘pchilikni hayratlantirdi, chunki...	
A	ko‘plar Shvetsiyada topshiriladigan mukofotning ilk sohibi ham shved adibi bo‘lishini kutgan edi.
B	o‘sha paytda shoir og‘ir kasal bo‘lib, taqdirlash marosimiga kela olmasligi ommaga ayon edi.
C	zamondosh adiblar orasida Syulli-Pryudomdan ham munosibroq boshqa vakil bor edi.
D	mukofotni Syulli-Pryudomga topshirish keyingi nomzodlarga katta talablar qo‘yilishiga olib kelishi mumkin edi.

Men... men uydagilardan yashirinib ishlardim. Ko‘nglim nimanidir sezardi: gipoteza yechimi yaqinday, juda yaqinday. Men bu sirli qasrga olib kiradigan darvoza yonida, bir shoda kalit ko‘tarib turardim go‘yo. Endi qulfga mos kalitni topib olsam bas edi. Men yana bir narsani sezardim: menga yosh aql, tiyrak tafakkurli birgina yordamchi kerak edi. Shunday kunlarning birida... Shunday kunlarning birida... internetga qaradim-u... ko‘zlarimga ishonmadim... dardi dunyoyim qorong‘i bo‘lib ketdi. Sankt-Peterburg shahrida yashaydigan, institutda katta ilmiy xodim bo‘lib ishlayotgan 41 yoshli Grigoriy Perelman degan matematik Puankarening gipotezasini to‘la-to‘kis nima qilibdi?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Nobel mukofoti haqida nimalar bilasiz? Bu mukofot qaysi yo‘nalishlar bo‘yicha topshiriladi?
2. Nobel mukofotini qo‘lga kiritganlardan kimlarni taniysiz?
3. Markaziy Osiyodan ham kimdir bu mukofotga loyiq ko‘rilganmi?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Nobel mukofoti laureatlari nutqi. Minbarda nutq so‘zlash.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish va bilimlarini oshirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish mustaqil fikrlash doirasini yuksaltirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar:

ona tili fanining rivojlanish tarixi, uning taraqqiyot qonuniyatlaridan xabardor bo‘lish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;

kundalik faoliyatda turli jadval va diagrammalarni o‘qiy olish, undan foydalanish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Nelson Mandelaning Nobel mukofotini qabul qilib olgan chog‘dagi nutqidan parcha Zoti oliylari, Oliy nasab Qirollik xonadoni a‘zolari, Muhtaram Nobel qo‘mitasi vakillari, Muhtarama Bosh vazir Gru Xarlem Bruntlann xonim, vazirlar, parlament a‘zolari va elchilar, o‘rtoq laureat Frederik Villem de Klerk, qadri mehmonlar, do‘stlar, xonimlar va janoblar, Men ayni damda Norvegiyadagi Nobel qo‘mitasiga bizni Tinchlik bo‘yicha Nobel mukofotiga loyiq ko‘rganlari uchun samimiy tashakkurimni izhor etaman... Bu mukofotni pulga chaqib bo‘lmaydi. Buni ajdodlarimiz izidan ergashgancha bosib yurganimiz – Afrika tuprog‘i qatlamlaridagi nodir metallar va qimmatbaho toshlarning ulgurji bahosi deb tushunmaslik kerak. Bu mukofotning qadri farzandlarimizning – har qanday jamiyatning eng zaif, ammo eng buyuk xazinasini bo‘lmish bolalarimizning kulgusi va salomatligi bilan

o'lanadi. Bolalarimiz, hech bo'lmaganda, ochiq qirlarda o'ynashi, tuyqus paydo bo'ladigan ochlikdan azob chekmasligi, kasallik sabab halok bo'lmasligi yoxud johillik, jinsiy tajovuz ofatlari bilan qo'rqitilmasligi va yoshiga mos kelmaydigan og'ir mehnatga safarbar etilmasligi lozim.


Barcha mazlumlarga berilgan ushbu sovg'aning qiymati yurtimizdagi barcha insonlarning, o'rtalariga to'siq bo'lgan g'ayriinsoniy devorni butunlay qulatajak xalqning shodligi va sihat-salomatligi bilan belginlangay va shunday bo'lishi ham kerak aslida. Biz shunday yashaymiz, zero istiqbolda hamma teng ko'riladigan, yashash, muvaffaqiyat qozonish, huquqlaridan foydalanish va yaxshi hukumatga ega bo'lishga haqli ekanini anglaydigan jamiyat barpo etamiz.

Nutq so'zlash og'zaki matnni shunchaki yodaki aytib berish yoki o'qib berish emas.

Avvalo, nutq mazmuniga mos tarzda kiyinish lozim. Ilmiy, xalqaro davralarda matnni qog'ozdan o'qib berish mas'uliyat belgisi sifatida qaraladi. Bu orqali vaqt ham tejaladi, aytilmoqchi bo'lgan ma'lumotlar izchil bo'lishi va yoddan ko'tarilmasligiga ham erishiladi. Matn qismlari mazmuniga ko'ra yuz, qo'l ishoralaridan foydalanish, ovozni balandlatish, pastlatish, unga kayfiyat yoki g'amginlik ohangini qo'shish nutq ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, davradigalar va alohida shaxslarga salom berish, minnatdorchilik bildirish chog'ida yuzni ular tomonga qaratish, tabassum qilish tavsiya etiladi. Muhim so'zlar: ismlar, tashkilot nomlari kabilarning to'g'ri talaffuz etilishi juda muhim.

Shvetsiya akademiyasining a'zolari, xonimlar va janoblar! Men nutq so'zlashga unchalik mohir bo'lmasam-da, hotamtoy Alfred Nobel mukofotini menga taqdim etishni lozim ko'rgan barcha kishilarga o'z minnatdorligimni izhor qilmoqchiman.

O'zidan ilgari o'tgan buyuk yozuvchilarning ushbu mukofotdan benasib ketganini eslagan har qanday kishini beixtiyor istihola va xijillik kayfiyati chulg'ab olishi tayin.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Yuqoridagi ikki nutqdan qaysi biri sizga yoqdi? Nima uchun?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

40 listdan iborat ona tili fanidan 10-sinf III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**